

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
AVTOMOBILLAR TUZILISHI, ULARGA TEXNIK XIZMAT
KO‘RSATISH VA TA‘MIRLASH MAXSUS FANIDAN MALAKA TEST
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN AVTOMOBILLAR TUZILISHI, ULARGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH VA TA‘MIRLASH MAXSUS FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida “Avtomobillar tuzilishi va ularga servis xizmat ko‘rsatish”, “Avtomobillar va dvigatellariga servis xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ishlari”, “Avtomobil yurish qismlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ishlari”, “Avtomobil uzatmalar qutisiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ishlar”, “Avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ishlari ” maxsus fanlaridan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta‘lim fanlarini kasbiy ta‘lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Avtomobillar tuzilishi ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash

1. Avtomobillarning tuzilishi.
2. Avtomobillarning dvigatellari
3. Avtomobillarda elektr energiyasining manbaI va iste‘molchilari .
4. Avtomobillarning shassilari.
5. Avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

| T/r | Mazmun sohalar | Konstruktlar | Testlar soni |
|-----|--|---|--------------|
| 1 | Avtomobillarning tuzilishi. | Mavjud avtomobillar (avtomobillar va elektromobillar) klassifikatsiyasi, tuzilishini, agregatlari, tizimlari, mexanizmlari, dvigatelari va shassilari tuzilishi, turlari, ishlash prinsiplari va sozlanishlari to'g'risidagi bilimlarni bilishi va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim | 24 ta |
| 2 | Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash. | Mavjud avtomobillar (avtomobillar va elektromobillar) klassifikatsiyasi, tuzilishini, agregatlari, tizimlari, mexanizmlari, dvigatelari va shassilariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash to'g'risidagi bilimlarni bilishi va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. | 16 ta |

IV. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

| T/r | Kognitiv daraja | Izohi | Ulushi (%) |
|-----|------------------------|--|------------|
| 1. | Bilish | Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish | 20 % |
| 2. | Qo'llash | O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish | 60 % |
| 3. | Mulohaza qilish | Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketmaketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish | 20 % |

V. Test turlari va taqsimoti

| T/r | Test turi | Izohi |
|-----|-----------|--|
| 1. | Y1 | To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test |
| 2. | Y2 | Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test |
| 3. | Y3 | Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test |

| | | |
|----|----|--|
| 4. | Y4 | Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test |
|----|----|--|

VI. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yor belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. R.Tillaxo'jaev, A.Madjitov Avtomobil elektr va elektron jihozlari tuzilishi, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash Turon Biznes Markazi 2023-yil
2. U.G'aybullaev Avtomobillarning elektr va elektron jihozlar Shafolat Nur Fayz 2023-yil
3. Magdiev Sh.P. Avtomobil yurish qismlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash Turon Biznes Markazi 2023-yil
4. J.Kulmuxamedov "Avtomobillarni tuzilishi", "Excellent Polygraphy" Toshkent-2021 yil.
5. J.Kulmuxamedov va boshqalar "Avtomobillarni tuzilishi, avtomobil dvigatellariga servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash", "Turon nashriyoti" Toshkent2021 yil.
6. J.Kulmuxamedov va boshqalar "Avtomobillarni tuzilishi, ularga servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash", "Turon nashriyoti" Toshkent-2021 yil.
7. Sh.Magdiev, Avtomobillar tuzilishi, avtomobil uzatmalar qutisiga servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash "Turon nashriyoti" Toshkent-2021 yil
8. D.I. Xoshimov, G'.N.Maxmudov "Yengil avtomobillarning tuzilishi", "Avtomsan" Toshkent-2019 yil.
9. A.Muxitdinov, J.Qulmuxamedov "Transport vositalarining tuzilishi", "Ta'lim nashriyoti" Toshkent-2019 yil.
10. O..Salimov , J.Kulmuxamedov "Avtomobillarni tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash", "Ilm Ziyos" Toshkent-2016 yil.

11. A.Muxitdinov, V.Sattivaldiyev, Sh.Xakimov “Transport vositalarining tuzilishi”, “Ta’lim nashriyoti” Toshkent-2014 yil.
12. D.I.Xoshimov “GM-Uzbekistan avtomobillarning konstruksiyasi”, “Avtomsan” Toshkent-2017 yil.
13. Y.I.Borovskix. Avtomobillarni tuzilishi, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’irlash”, “Talqin” Toshkent-2008yil.
14. Sh. P. Magdiyev.Avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’irlash. TOSHKENT – 2024
15. A.N.Umurzoqov , Avtomobillar tuzilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish ,ta’irlash , Toshkent-2012 yil
16. J.Kulmuxamedov va boshqalar “B va C toifadagi avtotransport vositalarining tuzilishi, ularga servis xizmat ko‘rsatish ”, Toshkent-2021 yil.
17. Sh.Magdiev, Avtomobillar tuzilishi, avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko‘rsatish , ta’irlash. Toshkent-“Ilm ziyo “-2006 yil
18. G‘.N.Mahmudov. Avtotransport vositalariningelektr jihozlari. Toshkent-“Ilm ziyo “-2014 yil

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*